



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## **TASHABBUSLI BUDJET MABLAG‘LARINI IJTIMOY EHTYOJLAR ASOSIDA MANZILLI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Murtozayeva Zarnigor Komol qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
tayanch doktoranti*

*E-mail: [nigorfinancer@gmail.com](mailto:nigorfinancer@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda tashabbusli budjet tizimini takomillashtirish, budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tashabbusli budjet jarayonlarida mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini kuchaytirish hamda budjet mablag‘larini aholining eng dolzarb ehtiyojlariga yo‘naltirishga qaratilgan normativ-huquqiy o‘zgarishlar tahlil qilingan. Xususan, moliyaviy mustaqil oliy ta‘lim muassasalarining tashabbusli budjet jarayonlaridagi ishtirokini cheklashning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida tashabbusli budjet mablag‘larini samarali va manzilli taqsimlash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tashabbusli budjet, mahalliy budjet, budjet samaradorligi, ijtimoiy ehtiyojlar, manzilli moliyalashtirish, jamoatchilik nazorati, budjet mablag‘lari, ijtimoiy adolat, moliyaviy mustaqillik, elektron reestr.*

## **УЛУЧШЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦЕЛЕВОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ ИНИЦИАТИВЫ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ**

**Муртозаева Зарнигор Комол кизи**

*базовый докторант  
Ташкентский государственный  
экономический университет*

*E-mail: [nigorfinancer@gmail.com](mailto:nigorfinancer@gmail.com)*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы инициативного бюджета в Узбекистане, разработки механизмов целевого распределения бюджетных средств на основе социальных потребностей. Анализируются нормативно-правовые изменения, направленные на повышение эффективности использования средств в инициативных бюджетных процессах, укрепление принципов социальной справедливости и направление бюджетных средств на наиболее насущные нужды населения. В частности, раскрывается экономическое и социальное значение ограничения участия финансово независимых высших учебных заведений в инициативных бюджетных процессах. В результате исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации по эффективному и целевому распределению средств инициативного бюджета.*

***Ключевые слова:** Инициативный бюджет, местный бюджет, эффективность бюджета, социальные потребности, целевое финансирование, общественный надзор, бюджетные средства, социальная справедливость, финансовая независимость, электронный реестр.*

## **IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR TARGETED DISTRIBUTION OF INITIATIVE BUDGET FUNDS BASED ON SOCIAL NEEDS**

**Murtozaeva Zarnigor Komol kizi**

*PhD student of  
Tashkent State University of Economics*





E-mail: [nigorfinancer@gmail.com](mailto:nigorfinancer@gmail.com)

**Annotation.** *This article discusses the issues of improving the initiative budget system in Uzbekistan, developing mechanisms for targeted allocation of budget funds based on social needs. The regulatory and legal changes aimed at increasing the efficiency of using funds in initiative budget processes, strengthening the principles of social justice, and directing budget funds to the most urgent needs of the population are analyzed. In particular, the economic and social significance of limiting the participation of financially independent higher educational institutions in initiative budget processes is revealed. As a result of the study, scientific proposals and practical recommendations were developed for the effective and targeted allocation of initiative budget funds.*

**Keywords:** *Initiative budget, local budget, budget efficiency, social needs, targeted financing, public oversight, budget funds, social justice, financial independence, electronic registry.*

### **Kirish**

Bugungi kunda davlat budjeti mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, fuqarolarning budjet jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish davlat moliyasini boshqarish tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan participatory budjetlashtirish “Participatory budgeting” mexanizmlarining milliy amaliyotimizga moslashtirgan holda yurtimizda joriy etilishi natijasida O‘zbekistonda ham jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ya‘ni “Tashabbusli budjet” tizimi yildan-yilga bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Mazkur tizim aholini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, ustuvor loyihalarni tanlash hamda budjet mablag‘larini taqsimlash jarayonlariga faol jalb etish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda [2].

Tashabbusli budjet tizimi orqali ichki yo‘llarni ta‘mirlash, ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash, ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, elektr va kommunal infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab loyihalar moliyalashtirilmoqda. Natijada budjet mablag‘larining ochiqligi va shaffofligi ta‘minlanib, jamoatchilik nazorati yanada kuchaymoqda. Shu bilan birga, mazkur tizim aholining hududlarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolligini oshirish hamda mahalliy muammolarni tezkor hal etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda [11].

Biroq tashabbusli budjet mablag‘larini taqsimlash amaliyotini tahlil qiladigan bo‘lsak ushbu yo‘nalishda ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Xususan, ayrim hollarda mablag‘larning ijtimoiy ustuvorligi past bo‘lgan loyihalarga yo‘naltirilishi, takroriy va mazmunan bir-birini takrorlovchi takliflarning ortib borishi, xarid jarayonlarida narxlar nomutanosibligining yuzaga kelishi hamda moliyaviy mustaqil tashkilotlarning tashabbusli budjet mablag‘larini jalb qilishi budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda [3]. Bu esa mablag‘larni taqsimlashda manzillilik, adolatlilik va samaradorlik tamoyillarini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ularning eng dolzarb hududiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilishini ta‘minlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Tashabbusli budjet tizimi hamda budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash masalalari so‘nggi yillarda xalqaro va milliy miqyosda iqtisodchi olimlar tomonidan faol tadqiq etilayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tizimning nazariy asoslari, budjet jarayonlarida fuqarolar ishtirokini ta‘minlash, mablag‘larni samarali taqsimlash hamda budjet ochiqligini kuchaytirish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan.





Xususan, Luca Bartocci, Giuseppe Grossi, Sara Giovanna Mauro va Carol Ebdon tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda participator budjetlashtirish tizimining shakllanish bosqichlari, uning zamonaviy boshqaruv tizimidagi o‘rni hamda budjet mablag‘larini taqsimlashdagi samaradorligi tahlil qilingan [4]. Mualliflar participator budjetlashtirish mexanizmi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash hamda budjet mablag‘laridan foydalanish shaffofligini oshirishda muhim vosita ekanligini asoslab bergan.

Laurent Bernhard, Regula Hänggeli Fricker, Thomas Wellings va Evangelos Pournaras ilmiy izlanishlarida participator budjetlashtirish tizimining legitimlik manbalari, fuqarolar ishtirokining samaradorligi hamda jamoatchilik ishonchini oshirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan [5]. Tadqiqotda budjet mablag‘larini taqsimlashda adolatlilik va ochiqlik tamoyillarining muhimligi alohida ta’kidlangan.

Mohammad Mustafa Ibrahimy, Alex Norta, Peeter Normak va Hadi Nowandish tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalar asosida participator budjetlashtirish tizimini takomillashtirish, xususan, blokcheyn texnologiyalari orqali budjet mablag‘larining shaffofligini ta’minlash va fuqarolar ishtirokini kuchaytirish masalalari yoritilgan [6].

O‘zbekistonda tashabbusli budjet tizimini rivojlantirish, budjet mablag‘larini taqsimlash samaradorligini oshirish hamda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish masalalari O.G‘aybullaev, I.Irgashev, U.O‘roqov, X.Qobulov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [4]. Mazkur tadqiqotlarda tashabbusli budjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari, “Ochiq budjet” portalining amaliy ahamiyati hamda loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilingan.

Shu bilan birga, tashabbusli budjet mablag‘larini aynan ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash, moliyaviy mustaqil tashkilotlarning mazkur jarayonlardagi ishtirokini tartibga solish hamda mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot davomida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish jarayonini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, sintez, iqtisodiy-statistik, induksiya va deduksiya, guruhlash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston Respublikasida tashabbusli budjet tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy islohotlar natijasida budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlari bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 13-yanvardagi KQ-34-V-son “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qarori ushbu tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asoslardan biri bo‘ldi [8].

Mazkur qaror qabul qilinishidan avval amaliyotda ayrim mahallalar va tashkilotlarning bir necha mavsum davomida ketma-ket g‘olib bo‘lishi kuzatilgan. Natijada tashabbusli budjet mablag‘lari ayrim hududlarda takroran jamlanib qolishi, boshqa hududlarning esa jarayonda yetarli darajada ishtirok eta olmasligi holatlari yuzaga kelgan. Shuningdek, moliyaviy mustaqil tashkilotlarning tashabbusli budjet mablag‘larini jalb qilishi mablag‘larning aholining eng dolzarb ehtiyojlariga yo‘naltirilish darajasiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida 2025-yildan boshlab yangi tartib joriy etildi. Unga ko‘ra, ketma-ket ikki mavsum g‘olib bo‘lgan mahallalarga keyingi mavsumlarda tanaffus berish, shuningdek, moliyaviy mustaqil oliy ta’lim muassasalarining tashabbusli budjet jarayonlarida ishtirokini cheklash belgilandi. Ushbu yondashuv budjet mablag‘larini hududlar kesimida yanada adolatli va manzilli taqsimlashga xizmat qilmoqda [9].





1-jadval.

**2025-yil 1-mavsumi doirasida tashabbusli budjet mablag‘larining ijtimoiy yo‘nalishlar kesimida taqsimlanishi<sup>12</sup>**

Yo‘nalishlar	G‘olib loyihalar soni	Ajratilgan mablag‘ hajmi	Umumiy mablag‘dagi ulushi
Ichki yo‘llarni ta‘mirlash	964 ta	1,396 trln so‘m	43,6 %
Maktablarni ta‘mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish	699 ta	875 mlrd so‘m	27,3 %
Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta‘mirlash	247 ta	329 mlrd so‘m	10,3 %
Bog‘chalarni ta‘mirlash	60 ta	72 mlrd so‘m	2,3 %
Ko‘cha yoritish tizimlarini yaxshilash	44 ta	52 mlrd so‘m	1,6 %
Ichimlik suvi va ogova tizimlari	34 ta	49 mlrd so‘m	1,5 %
Boshqa ijtimoiy loyihalar	321 ta	415 mlrd so‘m	13,0 %
<b>Jami</b>	<b>2 369 ta</b>	<b>3,2 trln so‘m</b>	<b>100 %</b>

“Ochiq budjet” portali ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilgi 1-mavsum yakunlarida jami 2 369 ta loyiha g‘olib deb topilgan bo‘lib, ularni moliyalashtirish uchun 3,2 trillion so‘m mablag‘ ajratilgan [9]. G‘olib loyihalarning asosiy qismini ijtimoiy infratuzilma obyektlari tashkil etdi. Jumladan, ichki yo‘llarni ta‘mirlash bilan bog‘liq 964 ta loyiha uchun 1,4 trillion so‘m, umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun 699 ta loyiha doirasida 875 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash muassasalari bilan bog‘liq 247 ta loyiha uchun 329 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan. Bu esa tashabbusli budjet mablag‘larining asosiy qismi bevosita aholining kundalik ijtimoiy ehtiyojlariga yo‘naltirilayotganligini ko‘rsatadi [3].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi tartib joriy etilgandan keyin tashabbusli budjet mablag‘larining hududlar kesimida qayta taqsimlanish darajasi oshgan. Xususan, 2025-yil 1-mavsumi yakunlariga ko‘ra, jami 2 011 ta mahalla g‘olib deb topilgan bo‘lib, shundan 329 tasi ilk marotaba g‘oliblikni qo‘lga kiritgan [3]. Mazkur ko‘rsatkich yangi hududlarning tashabbusli budjet jarayonlariga kengroq jalb etilayotganligini hamda mablag‘larning avval qamrab olinmagan hududlarga ham yetib borayotganligini anglatadi.

2-jadval.

**2025–2026-yillarda tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>13</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2025-yil 1-mavsumi	2026-yil 1-mavsumi*	O‘zgarish (+/-)
G‘olib loyihalar soni	2 369 ta	2 011 ta	–358 ta
G‘olib deb topilgan mahallalar soni	2 011 ta	2 184 ta	+173 ta
Ilk marotaba g‘olib bo‘lgan mahallalar	329 ta	418 ta	+89 ta
Ichki yo‘llarni ta‘mirlash loyihalari ulushi	40,7 %	36,4 %	–4,3 % punkt
Ta‘lim muassasalari bilan bog‘liq loyihalar ulushi	29,5 %	33,1 %	+3,6 % punkt
Sog‘liqni saqlash loyihalari ulushi	10,4 %	12,2 %	+1,8 % punkt
Ijtimoiy infratuzilmaga yo‘naltirilgan mablag‘lar ulushi	86,9 %	91,3 %	+4,4 % punkt
Takroriy g‘olib mahallalarga berilgan tanaffuslar	826 ta mahalla	1004 ta mahalla	+178 ta

<sup>12</sup> [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan yaratildi.

<sup>13</sup> [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali) ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan yaratildi.





Bundan tashqari, 2024-yil 2-mavsumida va 2025-yil 1-mavsumida ketma-ket g‘olib bo‘lgan 826 ta mahallaga 2025-yil 2-mavsumi hamda 2026-yil 1-mavsumida tanaffus berilishi belgilandi [3]. Mazkur mexanizm tashabbusli budjet mablag‘larining ayrim hududlarda jamlanib qolishining oldini olish hamda mablag‘larni boshqa ehtiyojmand hududlarga qayta yo‘naltirish imkonini yaratmoqda.

Shuningdek, xarid qilish bilan bog‘liq loyihalarni elektron reestr asosida shakllantirish tartibining joriy etilishi xarid jarayonlaridagi narx tafovutlarini kamaytirish, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda [10]. Natijada tashabbusli budjet tizimida mablag‘larni taqsimlashning ijtimoiy yo‘naltirilganlik darajasi oshib, budjet mablag‘larini aholining eng dolzarb muammolariga manzilli yo‘naltirish imkoniyatlari kengaymoqda.

### Xulosa

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda tashabbusli budjet tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar budjet mablag‘larini hududlarning real ijtimoiy ehtiyojlariga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 2025-yil 1-mavsumdan boshlab moliyaviy mustaqil oliy ta‘lim muassasalarining tashabbusli budjet jarayonlaridagi ishtiroki cheklangani mablag‘larni aholining kundalik turmush darajasiga bevosita ta‘sir qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoniyatini kengaytirdi.

Mazkur yondashuv natijasida tashabbusli budjet mablag‘larini umumta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash obyektlari, ichki yo‘llar, ichimlik suvi tarmoqlari hamda kommunal infratuzilmani yaxshilash bilan bog‘liq loyihalarga manzilli taqsimlash samaradorligi ortmoqda. Bu esa nafaqat hududiy ijtimoiy muammolarni qisqartirishga, balki budjet mablag‘laridan foydalanishning ochiqligi va adolatligini ta‘minlashga ham xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xarid qilish jarayonlarini elektron reestr asosida tashkil etish, takliflarni saralash mezonlarini kuchaytirish hamda takroriy loyihalarni cheklashga qaratilgan yangi tartiblar tashabbusli budjet tizimining institutsional samaradorligini oshirmoqda. Natijada mablag‘larning ayrim hududlarda jamlanib qolishining oldi olinib, yangi mahalla va hududlarning jarayondagi ishtiroki kengaymoqda.

Umuman olganda, tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish hududlarni kompleks rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish hamda davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu tizimni raqamlashtirish darajasini oshirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va loyiha baholash mezonlarini takomillashtirish orqali uning natijadorligini yanada yuksaltirish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021-y., 07/21/5072/0329-son
3. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali)
4. Bartocci L., Grossi G., Mauro S.G., Ebdon C. “The Journey of Participatory Budgeting: A Systematic Literature Review and Future Research Directions”. *International Review of Administrative Sciences*, 2022. – Vol. 88, No. 3. – P. 757–774.
5. Bernhard L., Fricker R.H., Wellings T., Pournaras E. “Sources of Legitimacy in Participatory Budgeting: A Scoping Review”. *Political Studies Review*, 2024. – Vol. 22, No. 4. – P. 611–628.
6. Ibrahimy M.M., Norta A., Normak P., Nowandish H. “Transforming E-Participatory





Budgeting with Blockchain: Boosting Transparency and Citizen Engagement”. *IEEE Transactions on Engineering Management*, 2025. – P. 1–15.

7. O‘roqov.U, Irgashev.I, G‘aybullaev.O. Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet. “Baktria press”, 2022

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 13-yanvardagi KQ-34-V-son “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qarori.

9. “Tashabbusli budjetda eng ko‘p g‘olib bo‘lgan loyihalar ma’lum qilindi”. Kun.uz, 2025-yil 25-mart. – <https://kun.uz/news/2025/03/25/tashabbusli-budjetda-eng-kop-golib-bolgan-loyihalar-malum-qilindi>

10. “Open budjetning 1-mavsumida eng ko‘p yo‘llarni ta’mirlash bilan bog‘liq loyihalar g‘olib bo‘ldi”. Anhor.uz. – <https://anhor.uz/uzl/news/open-budjetning-1-mavsumida-eng-kop-yollarni-tamirlash-bilan/>

11. Кабулов Х. А., Муртозаева З. К. В номере журнала “Финансы” Ташкентского государственного экономического университета 3/2024. “Перспективы развития системы финансирования проектов, формируемых на основе общественного мнения” С. 5-12.

